

QISHLOQ XO`JALIGIGA IXTISOSLASHGAN MAKTAB YARATISH VA UNING KELAJAK UCHUN ISTIQBOLLARI

Xasanova Xilola Abdumutalovna

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Yangi hayot qishlog'i 48- uy

Ish joyi: Bo'ston qishlog'i 11 – maktab O'IBDO'

Maqsad: Yangicha infrastrukturaga ega maktab rejasini tuzish va amaliyotga tadbiq qilish maqsadida ushbu maqolani pedagoglarga taqdim qilish.

Reja:

1. Chorvachilikni maktab fanlari bilan birga chuqur o'rgatish va amaliyotda qo'llash.
2. Dehqonchilikda intensiv mahsuldorlik yaratish uchun maxsus amaliy darslar tashkillashtirish.
3. Maktab yoshidagi bolalarni mehnatsevarlik va tadbirkorlikka o'rgatish.
4. O'z-o'zini ish bilan ta'minlashni o'rgatish. Maktabni bitirgandan keyin bekorchilikning oldini olish, ya'ni aholi ish samaradorligini va bandligini ta'minlash.

Hozirgi kunda turli fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar soni yildan yilga o'sib bormoqda. Ba'zi o'quvchilar aniq fanlarga qiziqishga ega bo'ladi, ba'zilari esa til o'rganishga iqtidorlidir. Lekin ayrim bolalar bu sohalarga qiziqmaydi. Bu esa ularning porloq kelajagiga ta'sir o'tkazmasligi kerak. Aynan shunday bolalar hayotini o'ylagan holda, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan maktab tashkil qilish va uning kelajak uchun istiqbollari ushbu maqolada ochib bermoqchiman.

Ko'p kuzatishlar natijasida shuni angladimki, ko'p o'quvchilar yaratuvchan, mehnatsevar, lekin ularning ilm-fanga qiziqishi kam. Vaholangki, barcha bolalar bir xil bo'lishga majbur emas. Ularning har biri o'ziga xos.

Bizning vazifamiz, shu o'ziga xoslikni anglagan holda ularni porloq kelajak tomonga yetaklab, to'g'ri yo'l ko'rsatishdir.

Bugungi kunda chorvachilikning juda ham ko'p tarmoqlari yurtimizda paydo bo'lib rivojlanmoqda. Shuningdek, bolalarning qiziqishlari ham turlichadir. Ularni ko'rib chiqamiz: qora mol yetishtirish, qo'y

boqish, parrandachilik (kabutar, tovuq, kurka, o`rdak, g`oz va boshqalar), quyonchilik. Qizig`i shundaki, qishloqda har bir bolaning uyida bular bor.

Xo`sh unda biz ularga nimani o`rgatamiz. Bizning dasturda bolalarga ularni nafaqat boqish, balki qay tarzda ko`paytirish, qanday qilib foyda olish va kelajakda o`z chorvachilik fermasiga qanday asos solish kerakligi haqida ilmiy va amaliy daralar tashkil qilish vazifalari bor.

Shu o`rinda unutmaslik kerakki, bolalar maktab davridagi mehnatlari uchun, albatta, o`z ulushlarini olishadi va maktabni bitirgandan so`ng bimalol o`z jamg`armalari bilan kichik biznesni yo`lga qo`yishlari mumkin.

Dehqonchilik bo`lsa, juda keng tarmoqni o`z ichiga oladi. Bular: mevali daraxt yetishtirish, sabzavotlar, ko`katlar, dukkakli ekinlar, sitrus mevalar, gullar, paxta, bug`doy va boshqalar. Bu juda keng qamrovli soha bo`lib, ko`p mehnat talab qilishini tan olishimiz kerak.

Maktabda birinchi o`rinda sabzavot yetishtirishni yo`lga qo`yish, uni rivojlantirish ancha oson va samarali. Misol uchun kartoshka, sabzi, piyoz, pomidor, ko`katlar va xo`jalik mahsulotlaridan foyda olish - bu birinchi qadam.

Ikkinchisi - bu katta fermer xo`jaliklari bilan shartnoma belgilab, mevazorlar, bug`doy paxta maydonlarini ham o`rganamiz. Shunday qilib, qadamma qadam mahsuldorlik tomon boramiz.

Masalan, asalarilar va asalarichilik tabiat va qishloq xo`jaligida muhim rol o`ynaydi.

Qishloq joylarida yashash, va munosib ish bilan ta`minlash manbai hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va ovqat sifatini yaxshilashga hissa qo`shadi.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi maktablarda, masalan, Boshqirdistonda asalarichilik umumta`lim maktablarining o`quv dasturiga kiritilgan. Bu dars barcha maktablarda o`qitilmasada, shaxsiy asalarichilik xo`jaligiga ega bo`lgan yuzlab umumta`lim maktablari bor. Asalarichilik daralarida o`quvchilarga asalarilarni yetishtirish, asal

yig`ish va shu kasbning boshqa sir-asrorlari ham o`rgatiladi. Hamma gap shundaki, Boshqirdiston Respublikasi asal yetishtirish bo`yicha dunyoda yetakchi o`rinlardan birini egallaydi. Ushbu nufuzli ushlab qolish uchun Respublikaning ko`pgina maktablarida asalarichilik asosiy darlardan biri sifatida kiritilgan.

Nima deb o`ylaysiz, bizning maktablarimizga ham shunday darlarni qo`shsak bo`ladimi?

Bizga ma'lumki, asalarilar onglilik darajasi bo'yicha dunyodagi barcha mavjudotlar ichida 2-o'rinda turadi (1- o'rinda inson).

Asalarilar inson tomonidan iste'mol qilinadigan mahsulot (asal) tayyorlovchi yagona hashorat turi hisoblanadi. Boshqa hech qaysi hashorat inson tomonidan iste'mol qilinuvchi mahsulot tayyorlamaydi. Asalarilar ba'zida " fan uchun ulkan sir" deb ham ta'riflanadi. Chunki ular 20 million yildan beri mavjud va shu vaqt davomida umuman o'zgarmagan jonzot hisoblanadi. Bu muddat davomida dunyodagi deyarli butun mavjudotlar ma'lum darajada o'zgargan. Asal iste'mol qilinuvchi eng qadimiy mahsulotlardan biri hisoblanadi. Asal Misr firavni Tutanhamon (mil.avv.XIV asr) sag`anasidan ham topilgan bo'lib, topilgan paytgacha (1922 yil 4 noyabr) iste'mol qilish uchun yaroqli holda saqlangan. Asalarilar insonlar va ba'zi kompyuterlar uchun eng qiyin bo'lgan matematik masalalarni osonlikcha hal qila oladi. Tasavvur qiling: yakshanba kuni oziq-ovqat do'koniga bormoqchisiz va uyingiz yaqinida turli joylarda 6 ta do'kon bor. Ularning qaysi biri piyoda borganda siz uchun eng yaqin? Bunday masalalar matematikada " sayohatchi sotuvchi masalalari" deb nomlanadi va ularni yechishda ba'zi kompyuterlar ham hisobdan adashishi mumkin. Asalarilar esa , hech qiynalmasdan uyasidan eng yaqinda bo'lgan gulzor yoki gul qaysi ekanligini aniqlay oladi. Hozirda bu turdagi masalalarni hal eta oladigan , inson tomonidan aniqlangan yagona mavjudot asalari hisoblanadi.

Shunday ma'lumotlar bilan darsdan so'ng qishloqdagi tadbirkorlar, fermerlar bilan uchrashuvlar o'tkazib borish , o'quvchilar qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, Rishton tumanidagi " Agronom Aliyev" fermer xo'jaligi rahbari Aliyeva Nodira Ibrohimovna bilan suhbat uyushtirdik. Nodira opa 10 yil oldin – 2013- yili fermerlikni boshlagan ekan. O'zlari bunga qadar fermerlikdan uzoq bo'lganlar, " "Kamolot" va "Kamalak" tashkilotlarida ishlagan. Hozirda fermer xo'jaligida 93,3 gektar yer bor, asosan paxta va g'alla yetishtiriladi. Yaqindan boshlab biroz chorvachilik ham yo'lga qo'yilgan, kelgusida asalarichilik va parrandachilikni ham boshlamoqchi. 2013-yili ilk marta ishni boshlaganlarida 60 gektar yerdan 7 million so'm foyda bilan chiqqan.

2022-yili paxtadan 1,3 milliard so'm, g'alladan 550 million so'm daromad qilibdi.

Shunday qilib, maktab yoshidagi bolalarni tabiat bilan hamohanglikda ulg'aytirish, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash ularni mehnatsevar, komil inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Zero, mehnatsevar va tadbirkor insonlar jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shadilar.

Barcha illatlar bekorchilikdan kelib chiqadi. Bolalarning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va unumli o'tkazish har birimizning ulkan vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Н. Крахотин “Календарь пчеловода”
2. “ Asal va asalarichilik” R.Qurbonov
3. “Asalarichilik fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yuritish”
4. “ Dehqon taqvimi” Ahmad Narziqulov
5. “Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari”
S.A.Azimboyev